



The role and development of phraseology in world linguistics

Mokhigul URAIMOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

phraseology,
phraseologism,
phraseology,
linguoculturological,
nominative,
stationary compound.

ABSTRACT

This article focuses on the study of phraseology and phraseological units, highlighting the contributions of world linguists to the development of this field. It highlights how linguists have contributed to progress in understanding and systematizing phraseological expressions.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp268-271>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jahon tilshunosligida frazeologiyaning o'rne va taraqqiyoti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola frazeologiya va frazeologizmlar tadqiqi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda jahon tilshunos olimlarining frazeologiya taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

frazeologiya,
frazeologizm,
frazza,
lingvokulturologik,
nominativ,
turg'un birikma.

Роль фразеологии и ее развитие в мировой лингвистике

АННОТАЦИЯ

Эта статья фокусируется на изучении фразеологии и фразеологизмов, подчеркивая вклад мировых лингвистов в развитие этой области. В ней освещается, как именно

Ключевые слова:

фразеология,
фразеологизм,
фразеологизмы,

¹ PhD student, Fergana State University. E-mail: mohigulqobulovna@gmail.com

лингвокультурологический,
номинативный,
стационарный состав.

ученые-лингвисты способствовали прогрессу в понимании
и систематизации фразеологических выражений.

ADABIYOTLAR TARIXI

Ilmiy tadqiqotlarda frazeologiyaning hajmini keng va tor doirada tushunish kuzatiladi. Keng doirada tushunishda frazeologiya o'z ichiga so'zlarning turg'un birikmalaridan tashqari, maqol, matal, aforizmnini mujassam qiladi, deb qaraladi. Frazeologiya sifatida so'zlarning semantik bog'lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so'zlarning turg'un birikmalarini – til birligi, deb baholash mumkin.

Bugungi kunga qadar, frazeologiya sohasida ko'plab izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan, U. Vaynrih, V. Cheyf, L.Smiz, F. Kulmas, A.P. Kovilar ingliz frazeologiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shganlar.

METODLAR VA NATIJALAR

Frazeologik birliklarda inson omili katta rol o'ynaydi, chunki frazeologik birliklarning aksariyati inson bilan, uning faoliyatidagi turli sohalar bilan bog'liq. Bundan tashqari, inson tashqi dunyo obektlariga, shu jumladan jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni berishga intiladi. Fransuz tilshunosi Sh.Balli ta'kidlaganidek: "Inson ongining abadiy nomukammalligi, insonning har doim uni o'rab turgan hamma narsani ma'naviylashtirishga intilishi bilan ham namoyon bo'ladi. U tabiatning o'lik va ruhsizligini tasavvur qila olmaydi; uning tasavvuri doimo jonsiz narsalarga hayot bag'ishlaydi, ammo bu hammasi emas: inson doimo tashqi dunyoning barcha obyektlariga o'zining shaxsiyatiga xos xususiyatlar va intilishlarni bog'laydi".

Ushbu maqolada materiallarni tahlil qilishda deskriptiv, statistik hamda komparativ metodlardan foydalanildi.

Frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi elementlar to'g'risida turlicha munozaralar haligacha mavjud hisoblanadi. Birinchi qarash egalari frazeologizmlarni tashkil qiluvchi qismlar o'zining semantik jihatdan o'z ma'nosini yo'qotgan so'zlardan tashkil topgan degan fikrni ilgari surishadi. Boshqalari esa frazeologik birlikning tarkibiy qismlari obektiv korrelyatsiyani ilgari o'ziga xos bo'lgan leksik ma'no va nominativ funksiyasini yo'qotgan birliklardan tashkil topadi deb hisoblashadi.

Shu bilan birga, frazeologik birliklarning tarkibi haqida ham ikki xil qarash mavjud. Xususan, turk tilshunoslaridan Umar Osim Oqsoy, Ali Puskuo'g'li hamda Subashi Uzun frazeologik birliklar minimum ikki so'zdan tashkil topishi kerakligini ta'kidlashadi. Sabohat Emir, Dogan Aksan, Metin Yurtboshilar esa frazeologik birliklar bir so'zdan ham iborat bo'lishi mumkinligini aytib o'tishadi. Xususan, o'zbek tilida ham oldin ibora sanalgan qo'shma so'zlar hozirda ibora safiga kiritilmaydi va iboralar tarkibi asosan, ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi.

V. Maslova frazeologizmlarga lingvokulturologik jihatdan yondashgan holda quyidagicha ta'rif beradi: "Frazeologizmlar o'z semantikasida xalq madaniyatining uzoq rivojlanish jarayonini aks ettiradigan va madaniy munosabat va stereotiplarni avloddan-avlodga o'tishi va takomillashishiga xizmat qiladigan vositalardir." Y.P. Solodubning ta'kidlashicha, "frazeologik tasvirning milliy o'ziga xosligi shundaki, frazeologik birliklarning leksik tarkibini shakllantirishda o'sha xalqning turmush fe'l-atvori, uning tarixi, ma'naviy hayoti, o'ziga xos urf-odatlar va etnik hayoti aks ettiriladi." Amerikalik

tilshunos olimlardan biri B. Freyzer esa iboralarga quyidagicha ta'rif beradi: "Iboralar lingvomadaniyat sohasida muhim o'rin tutadi va oddiy birikmalardan farqli ravishda ular qotib qolgan birikma bo'lib, shakli va ma'nosi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi." Shuningdek, rus tilshunosi F.I. Buslayev frazeologizmlarni o'ziga xos mikro olam deb ataydi. Ya'ni, ularda o'zlari tegishli bo'lgan xalqning urf-odatlar, an'analari, yillar davomida shakllangan qarashlari aks etgan bo'ladi. V.N. Teliya esa frazeologizm atamasiga quyidagicha izoh beradi: "Frazeologizmlar yoki frazeologik birliklar – til va nutqda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan va maxsus funksiyani bajaruvchi barqaror iboralar, til belgilaridir".

A.V. Kunin o'zining "Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka" kitobida frazeologik birliklar, frazeologiya haqida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Xususan, u frazeologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Frazeologiya – bu frazeologik birliklar (frazemalar) haqidagi fan, ya'ni, o'zgaruvchan birikmalarning tarkibiy va semantik modellari bo'yicha hosil bo'lmagan murakkab semantikaga ega so'zlarning barqaror birikmalari to'g'risidagi sohadir."

Shuningdek, A.V. Kunin qayd etishicha, Angliya va Amerika lingvistik adabiyotlarida frazeologiya nazariyasiga bag'ishlangan bir nechta asarlar mavjud, ammo mavjud bo'lgan eng muhim asarlarda ham [Weinreich, 1964; Makkai, 1972; Smit, 1959] frazeologik birliklarni ajratish uchun ilmiy asoslangan mezonlar, frazeologik birliklar va so'zlarning nisbati, frazeologiyaning izchilligi, frazeologik o'zgaruvchanlik, frazeologik shakllanishi haqida so'z bormagan hamda ingliz olimlar tomonidan frazeologiya mustaqil fan sifatida e'tirof etilmagan.

L.P. Smit va E.M. Soloduxaning ilmiy tadqiqot ishlarida frazeologik birliklarning semantik-grammatik xususiyatlari tahlil qilingan. Umuman olganda, tilshunoslikda frazeologiya uzoq yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganib kelingan. Chunki frazeologik birliklar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblanib, leksikologiya esa tilning lug'at boyligini tashkil qiluvchi so'zlar va ularning invariantlarini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Keyingi yillarda frazeologiya olimlar tomonidan chuqur o'rganilishi natijasida ushbu soha tilning alohida katta yo'nalishi ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijada XX asrning 50-yillarida tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi sifatida leksikologiya bag'ridan ajralib chiqdi. Taniqli frazeolog olim N.N. Amosova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko'plab frazeolog olimlarning turli tillar bo'yicha olib borgan tadqiqoti samarasidir." Frazeologiya keyingi yillarda tez suratlarda taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, bu soha juda ko'p mamlakat olimlarining e'tiborini tortdi. Frazeologik birliklarning tabiati va hosil bo'lish usullariga doir masalalarni A.M. Babkin, Y.A. Gvozdev ishlarida uchratishimiz mumkin. Frazeologik birliklarning o'zaro sinonimik, antonomik, variantdoshlik, omonimik xususiyatlari M.N. Shanskiy, A.M. Melerovich, V.A. Yatselinka ishlarida keng tahlilga tortilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarning matndagi vazifalari va uslublarda ishlatilishi bo'yicha V.O. Lomakina ish olib borgan. Yaqin yillarda frazeologik birliklarning stilistik va semantik transformatsiyalari olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi va bu bo'yicha E.V. Bodrova, E.V. Generalova, S.V. Ilyasova, I.N. Kuklina, A.S. Makarova, E.V. Ogoltseva, K.S. Parfenova, T.V. Romanova, I. Tretyakova, N.N. Shcherbakova, T.N. Sheveleva ish olib bordilar. Iboralarning qiyosiy, qiyosiy-tipologik tahlil masalalarini R.I. Popovich, P.P. Litvinov, E.A. Polyakova va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shu narsa ma'lum bo'ladiki, frazeologiya dastlab mustaqil fan sifatida fransuz tilshunosi Sh. Balli tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa, uning taraqqiyoti esa bevosita rus tilshunosligiga borib taqaladi. Xorijiy olimlarning o'zlari ham e'tirof etib o'tganlariday, frazeologiya sohasi Sharqiy Yevropa, ya'ni Rossiya hududida ildiz otdi va ko'plab rus tilshunoslari uning rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, A.Kunin, V.Maslova, V.Teliya, V.Vinogradov, Shanskiy, Smirnitkiy tilshunoslarni alohida e'tirof etib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bally, Charles. (1951). *Traité de stylistique française*. Genève: Georg et Cie. 273 p.
2. Coulmas, Florian. 1981. "Idiomaticity as a problem of pragmatics." In: H. Parret and M. Sbisà (eds.), *Possibilities and Limitations of Pragmatics*. Amsterdam: Lawrence Erlbaum Associates;
3. Cowie, A.P. *Phraseology: Theory, Analysis and Applications*.
4. Chafe, Wallace L. 1968. "Idiomaticity as an anomaly in the Chomskyan paradigm." In: *Foundations of Language* 4, 109-127; 7. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии: Изд-во Ленинградского университета, 1978:26.
5. Fraser B. *Idioms within a Transformational Grammar* / B. Fraser // *Foundations of Language*. –1970.–Vol.6.–No.1. 24p.
6. Kavka, Stanislav. 2003. *A Book on Idiomatology*. Žilina: EDIS.
7. Makkai, Adam. 1972. *Idiom structure in English*. The Hague/Paris: Mouton.
8. Maslova V.A. *Lingvokul'turologiya* [Linguocultural Studies]. M.: Iz-datel'skiy tsentr «Akademiya», 2004. 208 p.
9. Teliya V.N. *Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy analiz* [Russian Phraseology: Semantic, Pragmatic and Linguocultural Analysis]. M.: Shkola «Yazyki russkoy kul'tury», 1996. 288 p.
10. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – 7 bet.
11. Weinreich, Uriel. 1972. *Explorations in semantic theory*. The Hague/Paris: Mouton.
12. Бабкин, Александр Михайлович. *Русская фразеология. Ее развитие и источники* [Текст] / А. М. Бабкин; Акад. наук СССР, Ин-т русского яз. - Ленинград: Наука, Ленинградское отд-ние, 1970. - 261, [2] с;
13. Буслаев Ф.И. (1954). *Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные*. – М.: Русский язык, 176 с.
14. Жуков А.В. *Объективная фразеология в русском языке* // Семантико-грамматические характеристики фразеологизмов русского языка. -Л: 1973. 301 с;
15. Жуков В.П. *О несоизмеримости компонентов фразеологизма со словом* //Русск. яз. в школе. М., 1969.
16. Кунин, Александр Владимирович. *Курс фразеологии современного английского языка: [Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.]* / А. В. Кунин. - 2-е изд., перераб. - М: Высш. шк.; Дубна: Изд. центр "Феникс", 1996. - 380,[1] с.; 22 см.; ISBN 5-06-002394-X (В пер.): Б. ц.
17. Смит, Л. П. *Фразеология английского языка* [Текст] / Л. П. Смит; пер. с англ. А. С. Игнатьева. – М: Учпедгиз, 1990. – 342 с.